



O‘Quvchilarda “Informatika Va Axborot Texnologiyalari” Faniga Oid Kompetensiyalarini Shaklantirish Jarayonlari

Baxrom Roxmonqulovich Xanimqulov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Mansur Yangiboyevich Gaipov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘quvchilarda “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid kompetensiyalarini shaklantirish jarayonlari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Kompyuterlar, printerlar, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura.

Аннотация. В данной статье подробно описан процесс формирования знаний студентов по предмету «Информатика и информационные технологии».

Ключевые слова. Компьютеры, принтеры, модем, микрофон и устройство звукового вещания, сканер, цифровая видеокamera, мультимедийный проектор, сенсорный экран, музыкальная клавиатура.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib dars o‘tish dars samaradorligiga o‘z tasirini ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda o‘qitishda zamonaviy kompyuterning mavjudligi, avvalgi texnikalar bajargan funksiyalarni zamonaviy kompyuterlar muvaffaqiyat bilan o‘z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi.

Hozirda kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi va u har bir insonga qayerda, qaysi joyda ishlamasin zaruratga aylanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, har xil skanerlar, videoprojektorlar, videokamera, interaktiv elektron doska, zamonaviy telefonlar, elektron pochta, multimedia vositalari, internet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin. Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:


- kompyuterlar, printerlar, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta’minoti;
- uskunaviy dasturiy ta’minot;
- virtual matn konstruktorelari, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik



haritalar, ekran protsessorlari va h.k;

- axborotlar majmui - ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k;
- texnik ko'nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o'zlashtirish va h.k.).

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir. Hozirgi kunda kompyuterlar ta'lim tizimida asosan to'rt yo'nalishda foydalanilmoqda.



1-rasm. Kompyuter ta'lim tizimi yo'nalishi

O'qituvchilarni ta'lim jarayonida AKT vositalarini yaratish va ulardan foydalanishga tayyorlash sharoitida ularning kasbiy faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirish zarur. O'qituvchining kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan.


Ta'limning sifat jihatidan yangilanishini ta'minlash uchun zamonaviy ta'lim natijalarining mohiyati va asosiy tarkibiy qismlarini aniq belgilash zarur. Bu esa uni yangilash va takomillashtirishning uslubiy asosi, semantik yuriqnomasiga aylanadi.

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalardan ta'lim muassasalarida amalda tadbiq etish o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashda hamda o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishda keng imkoniyatlar yaratadi. O'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarining takomillashuviga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishga o'ziga xos vazifalarni qo'yadi:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o'qituvchilar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarining birgalikda faoliyat olib borishni;
- o'qituvchilar o'rtasida vazifalarning bir maromda to'g'ri taqsimlanganligini;
- ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini



yaratadi.



2-rasm. O'qituvchining pedagogik faoliyati

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qituvchining pedagogik faoliyati quyidagi tarkiblarga ajraladi.

Ta'limning texnologiyasi - ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon yengillashadi;

Dars jarayonini tashkil etish - dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko'nikma va malakalar shakllantiriladi;

Masofaviy kurslar - masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli, ularning sifatiga bo'lgan talablar va o'quv materialining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi;

O'quvchilarning mustaqil faoliyati - ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyati takomillashadi, dars jarayonining samaradorligi o'qituvchidan o'quvchiga ko'chadi;

O'quv jarayonini tashkil etish - o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchining tashkilotchiligi va shaxsiy ishtiroki ortadi;

O'quvchilar bilan individual ishlash - zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o'quvchi bilan teskari aloqa vujudga kelishi ta'minlanadi.

Hozirgi kunda jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Zamon talabi shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida oshirib borish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot obyektlarini ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlantiradi.

O'qituvchilar ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini



inobatga olish zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya jarayoni shaxsga yo'naltirilgan xarakterda bo'lishi, ya'ni shaxsning har-xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik dasturiy ta'minot har qanday ta'lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda asosiy dasturiy ta'minot sifatida pedagogik kontekstda ishlatiladigan dasturiy ta'minotni nazarda tutadi. Misol sifatida bir guruh o'quvchilarga hamkorlikdagi vazifani bajarishga imkon berish uchun asosiy muloqotda dasturiy vositasidan foydalanish mumkin. Elektron jadval o'zining formula, funksiyalari, avtomatlashgan hisoblash, grafika imkoniyatlari uyg'unligida kuchli simulyatsiyani amalga oshirishga imkon berishi mumkin. Yoki aynan shu maqsad uchun virtual voqelikni ta'minlovchi maxsus dasturlardan ham foydalanish mumkin.

References:

1. Ханимкулов Б.Р. “Применение статистики на уроках информатики”.- ТА’ЛИМ. FAN VA INNOVATSIYA 2022 й, 6-сон, 48-53 бетлар.
2. Ханимкулов Б.Р., Эгамбергенов Ж.К. “АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ”. О‘ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 17-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI.
3. Ахмедов, Б. (2018). Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'rganish jarayonida elektron ta'lim kurslarini qo'llash tamoyillari. Toshkent davlat pedagogika universiteti, 1(1), 51-56.